

YŷT: 633.111.1; 631.527.3

**KUZGI BUG'DOY YETISHTIRISHDA YOMG'IRLATIB SUG'ORISHNING
ME'YOR VA MUDDATLARINI BELGILASH. (QARSHI TUMANI
Y.OMONOV HUDUDI MISOLIDA)**

Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchi
Aralov Behro'z G'ayratovich
Qarshi davlat texnika universiteti magistranti
G'avsiyeva Saida Umar qizi

Qashqadaryo viloyatining tabiiy tuproq iqlim sharoiti

Qashqadaryo viloyati Respublikaning janubiy g'arb tomonida joylashgan va uning shimoliy va g'arb tomoni tog'lar bilan to'silgan. Shuning uchun ham Qashqadaryo viloyat xududida joylashgan Qarshi dashti (Muborak, Mirishkor, Kasbi, Koson, Qarshi va Nishon tumanlari) zonasiga shimoldan sovuq havo, g'arb tomondan Qoraqumdan kuchli qizigan havo massasi keladi. Bu holat o'z navbatida keskin kontinental ob-havoni yuzaga keltiradi.

Yog'ingarchilik esa juda kam bo'lib o'suv davrida 40-140 mm, kuz, qish va bahor kezlari 104-394 mm bo'ladi. Namlikning bug'lanishi o'suv davrida 1110-1580 mm, o'suv davridan tashqari davrlarda 394-402 mm tashkil etadi. Natijada namlikni yetishmovchiligi sodir bo'ladi [11, 4-7-b].

Ekinlarning o'sishi va rivojlanishi davrida sug'orish suvlariga bo'lgan talabning yuqoriligi meteostansiyalarning ma'lumotlarini tahlilidan ko'rinib turibdi, bu davrlarda suvga bo'lgan talab juda oshib ketadi. Bu davrda ekinlarning suvga bo'lgan talabi faqat sun'iy sug'orish orqali qondiriladi. Qashqadaryo daryosining suv hajmi past bo'lganligi sababli kuz, qish va bahor kezlariidagi suvni to'plash maqsadida Chimqo'rg'on, Pachkamar, Xisarak va boshqa suv omborlarida to'planadi. Hosil bo'lgan zaxira suv takroriy ekinlarning o'sishi va rivojlanishi davrida ishlatiladi. Biroq to'plangan suv zaxiralari viloyatning tipik bo'z tuproqlari zonasini zo'rg'a ta'minlaydi. Shu sababli Amudaryo suvidan Qarshi magistral kanali orqali Talimarjon suv ombori to'lg'azilib, yozda ekinlar sug'oriladi. Viloyatning och tusli bo'z tuproqlar zonasidagi ekinlar asosan Qarshi magistral kanali va Talimarjon suv ombori suvlari vositasida sug'oriladi.

Viloyatning dehqonchilik qilinayotgan maydonlarini tuproq turi va tarkibi (tipik bo'z, och tusli bo'z, taqir va taqirsimon tuproqlar), iqlim sharoiti hamda yil davomida atmosferadan tushadigan yog'in miqdoriga qarab uchta dehqonchlik hududiga bo'lish mumkin.

Birinchi hududga Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari hamda Chiroqchi va Qamashi tumanlarining yuqori qismlari kiradi. Bu hududda havoning nisbiy namligi

18 %gacha, yuqori sutkalik harorat esa boshqa hududlarga nisbatan 3-4 darajaga, foydali harorat yig'indisi 285-461 darajaga past bo'ladi. Yillik yog'in miqdori o'rtacha 400 mm va undan yuqori.

Ikkinchi hududga G'uzor, Qamashi, Qarshi, Koson va Kasbi, Nishon tumanlarining och tusli bo'z tuproqlari maydonlari kiradi. Bu hududda havo harorati birinchi hududga nisbatan 2-3 darajaga yuqori, nisbiy namlik biroz past bo'lib, yerdan bug'lanish 190 mm ga yuqori, namlik yetishmovchiligi 270 mm ni tashkil etadi. Yillik yog'in miqdori 200-300 mm dan oshmaydi. Havodagi nisbiy namlik keskin kamaygan paytlarda kuchli garmisel shamollari esib turadi.

Uchinchi hududga Mirishkor, Muborak tumanlari va Kasbi, Nishon, Koson tumanlarining taqir va taqirsimon tuproq yerlari kiradi. Bu yerlar yuqorida qayd etilgan ikki hududga nisbatan ob-havo sharoitlarining noqulayligi bilan ajralib turadi. Bu hududda yillik yog'in miqdori 150-250 mm gachani tashkil etadi xolos. Shu boisdan ham bu hududda ekinlarni bir martalik sug'orish meyorlarini birinchi hududdagiga nisbatan 200-250 m³ ga oshirish kerak.

Qashqadaryo viloyatining jami foydalaniladigan yerlarining umumiy maydoni 2856,8 ming gektarni, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 2413,5 ming gektarni, ekin maydonlar jami 679,3 ming gektarni, shundan sug'oriladigani 422,0 ming gektarni, lalmi yerlar 257,3 ming gektarni tashkil etadi. Viloyatning asosiy sug'oriladigan tuproqlari turli muddatli o'zlashtirilgan, sug'oriladigan taqirli, och tusli bo'z, tipik bo'z hamda taqirli o'tloqi, o'tloqi allyuvial tuproqlardir.

Viloyatda o'rta qumoqli (40,35%), yengil qumoqli (26,58%) va og'ir qumoqli (23,04%) tuproqlar keng tarqalgan bo'lib, ular jami sug'oriladigan maydonlarning qariyb 90 %ini tashkil etadi. Bunday mexanik tarkibli tuproqlar tabiiy unumdorligi hamda bir qator kimyoviy, fizik va suv-fizik xossalari bo'yicha yaxshi agronomik xususiyatlarga ega.

Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan yer maydoni tipik bo'z tuproqlar, och tusli bo'z tuproqlar, o'tloq va bo'z-o'tloq tuproqlar, taqir va taqirsimon tuproqlar, cho'l zonasining o'tloq tuproqlarini tashkil qiladi (2.1.1-jadval).

1-jadval**Qashqadaryo viloyati tuproqlarining turlari**

No	Asosiy tuproq tiplari	Umumiy maydon,%	Sug'oriladigan yerlar,%
----	-----------------------	-----------------	-------------------------

1.	Och tusli-qo'ng'ir-o'tloq-cho'l yuqori tog'	2,8	-
2.	Tog'ning o'rta qismida joylashgan jigar rang tuproqlar	14,2	-
3.	Qoramtir bo'z tuproqlar.	8,8	-
4.	Tipik bo'z tuproqlar	23,1	16,3
5.	Och tusli bo'z tuproqlar	19,2	24,6
6.	O'tloq va bo'z-o'tloq tuproqlar	3,8	24,8
7.	Taqir va taqirsimon tuproqlar	12,4	17,5
8.	Cho'l qumoq tuproqlar	2,2	2,0
9.	Cho'l zonasining o'tloq tuproqlari	1,6	18,2
10.	Kulrang qo'ng'ir tuproqlar	6,1	2,0
11.	Sho'rxoklar	1,6	-
12.	Qumlar, ona jinslar va boshqalar	4,2	-
Jami		100%	100%

Viloyat sug'oriladigan tuproqlarining qariyb 70 %i turli darajada sho'rlangan bo'lib, sho'rlanganlik kuchli namoyon bo'lgan tumanlar qatoriga G'uzor, Qarshi, Chiroqchi va o'rtacha ko'rsatkichlarga Koson, Nishon, Yakkabog' tumanlari kiradi. Demak, bu tumanlar tuproqlarining unumdorligini oshirish uchun sho'rlanishning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Viloyatning Nishon, Mirishkor, Dehqonobod tumanlarida shamol eroziyasi xavfi katta, chunki ularning ko'pgina maydonlarining tuproqlari yengil qumoq va qumloqlidir. Viloyat tuproqlarining 10 %i o'rtacha darajada, 88 %i kuchsiz darajada sug'orish eroziyasiga uchragan. Sug'orish eroziyasi Dehqonobod, Qamashi, Muborak, Chiroqchi tuproqlarida keng tarqalgan bo'lib, umumiy maydonining 20-40 %ini tashkil etadi. Tuproq unumdorligini saqlashga qaratilgan tadbirlar ichida bu salbiy jarayonning oldini olishga yo'naltirilgan ishlar o'z o'rnini egallashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kovtun V. I. Vliyanie selektsii na kachestvo zerna na yuge Rossii [Influence of selection on grain quality in the south of Russia]. Izvestiya Orenburgskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta. 2010. Vol. 3. no. 27-1. pp. 86.
2. Juraev D. T. i dr. Zavisimost' produktivnosti ozimoy myagkoy pshenitsiy ot suxoveev, nablyudaemiyx v usloviyax yujniyx rayonov Uzbekistana [The dependence of the productivity of winter bread wheat on dry winds observed in the conditions of the southern regions of Uzbekistan]. Byulleten' nauki i praktiki. 2018, Vol. 4. no. 10. pp. 64.
3. Juraev D. T. i dr. Vliyanie viysokoy temperaturiy v period "kolosheniya-sozrevaniya" na elementiy urojaya myagkoy pshenitsiy [The effect of high

temperature during the “earring-ripening” period on the elements of the crop of bread wheat]. Agrarliq g'iyimdar seriyasiy, Astana, 2017, pp. 136

4. Khazratkulova S. et al. Genotype× environment interaction and stability of grain yield and selected quality traits in winter wheat in Central Asia. Turkish Journal of Agriculture and Forestry. Turkey, 2015, Vol. 39. no. 6. pp. 920-929.
5. Dilmurodov Sh. D., Boysunov N. B. O'tbor produktivniyx liniy myagkix pshenits iz gibridnogo pitomnika v usloviyax yujnogo regiona Respubliki Uzbekistan [Selection of productive lines of bread wheat from a hybrid nursery in the conditions of the southern region of the Republic of Uzbekistan]. World science: Problems and Innovations, Russia, 2018, pp. 58-60.
6. Heffner E. L. et al. Genomic selection accuracy for grain quality traits in biparental wheat populations. Crop Science, 2011, Vol. 51. no. 6. pp. 2597-2606.
7. Atanasova D. et al. Influence of genotype and environments on quality of winter wheat varieties in Northern Bulgaria. Agricultural science and technology, 2009, Vol. 1. no. 4. pp. 121-125.
8. Mohammadi R., Haghparast R. Evaluation of promising rainfed wheat breeding lines on farmers' fields in the west of Iran. International Journal of Plant Breeding, 2011, Vol. 5. no. 1. pp. 30-36.